

Atrof-muhit muhofazasi – sanoat rivojida asosiy ustuvorlik

// 10.09.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/atrof-muhit-muhofazasi-sanoat-rivojida-asosiy-ustuvorlik>



"O'zbekimiyosanoat" AJ va tarmoq korxonalari o'z faoliyati davomida ekologik barqarorlikni ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilishni ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilagan. Bu borada ekologik talablarga rioya etish, ishlab chiqarish jarayonlarida zamonaviy va ekologik xavfsiz texnologiyalardan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish hamda qayta ishlashni yo'lga qo'yish orqali tabiatga bo'lgan ta'sirni minimallashtirish yuzasidan aniq va amaliy choralar ko'rib kelmoqda.

Xususan, shu yilning yanvar-avgust oylarida mazkur yo'nalishda jami 68 ta tadbir amalga oshirilishi natijasida atmosferaga tashlanmalar 8,1 ming tonnaga kamaytirildi. 426 tonna chiqindilar hosil bo'lishi oldi olindi, 17,5 ming tonna chiqindi utilizatsiya qilindi, 204 ming m³ oqova suv tashlamalari qisqarishiga, 33,0 ming m³ ichimlik suvi va 318,5 ming m³ artezian suvi iqtisod qilinishiga erishildi.

Korxonalarda atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar tashlanmalari manbalaridan namunalar olish va tahlillar o'tkazish bo'yicha doimiy nazorat olib boruvchi avtomatik stansiyalarni va statsionar postlar xarid qilish hamda o'rnatish yuzasidan amaliy harakatlar olib borilmoqda.

Masalan, bunday uskunalar "Navoiyazot" Ajda 3-, 23- va 25-sexlarga o'rnatilgan bo'lib (test rejimida) ishlamoqda. Bundan tashqari hududiy ekologiya boshqarmasining yagona geoaxborot tizimiga integratsiyalash ishlari olib borilmoqda.

Shu bilan birga ayni paytda jamiyat mutaxassislari 8 ta manzilga ana shunday nazorat uskunalarini joylashtirdilar. Ular orqali havo tarkibidagi gazlarning miqdori, inson salomatligiga ta'siri, ifloslanish manbalari aniqlanadi. Bu esa Navoiy shahridagi sanoat, ishlab chiqarish korxonalarining qay darajada ekologik standartlarga rioya qilayotganini o'rganish va amaliy chora-tadbirlar ko'rishga xizmat qiladi.

"Qo'ng'irotd soda zavodi" MCHJ XKga ham statsionar postlar olib kelindi hamda Elobod shaharchasiga o'rnatilib, joriy yil iyun oyining birinchi yarmida uskuna ishga tushirildi. "Qizilqum fosforit kompleksi" MCHJ avtomatik gaz tahlil qilish uskunalari, "Dehqonobod kaliy zavodi" Ajda ekopostlar o'rnatildi. Ularning barchasini O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi Vazirligining yagona geoaxborot tizimiga integratsiyalash ishlari olib borilmoqda.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati